

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu/74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV JAMSHID DJAMILOVICH**

**SURROGAT ONALIK MUNOSABATLARINI SHARTNOMAVIY  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 - Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.  
Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the doctor of Philosophy (PhD)**

**Abdullayev Jamshid Djamilovich**

Surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish.....3

**Абдуллаев Джамшид Джамилевич**

Совершенствование договорно-правового регулирования отношений суррогатного материнства.....21

**Abdullaev Jamshid Djamilovich**

Improving the contractual legal regulation of surrogate motherhood relations.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List published works.....43

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.32/30.12.2020.Yu/74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI  
UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV JAMSHID DJAMILOVICH**

**SURROGAT ONALIK MUNOSABATLARINI SHARTNOMAVIY  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 - Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi.  
Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu 931-raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sayti ([www.jxu.uz](http://www.jxu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim tarmog‘i portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Choriyev Murodjon Shokirjonovich**

yuridik fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Usmanova Muborak Akmaljonovna**

yuridik fanlari doktori, professor

**Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich**

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01-raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik kengashining 2023-yil “13” dekabr soat 14<sup>30</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.:(99871) 230-32-71; faks: (99871) 230-32-82; [Jxu@umail.uz](mailto:Jxu@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan) Manzil: 100211, Toshkent v., Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel./faks:(+99871) 230-32-82

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.X.Rustambayev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlari doktori, professor

**N.I.Xayriyev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlari doktori, professor

**Sh.M.Gaziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlari doktori, dotsent

## Kirish (Falsafa doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o'zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji o'ziga xos shartnoma aloqalarining paydo bo'lishiga, fuqarolik muomalasida yangi shakl va ko'rinishlardagi munosabatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Ayni paytda, ilmiy-texnika taraqqiyoti tibbiyot sohasida yordamchi reproduktiv texnologiyalar (YoRT) paydo bo'lishi bilan ayrim xorijiy mamlakatlarda surrogat onalik xizmatlaridan foydalanish faktlari ko'payib borayotganligini e'tirof etish mumkin. Xususan, "1999-yildan 2020-yilgacha AQShda 30.927 surrogat onalik holati sodir bo'lgan, ulardan 8.581 tasi yakka, 4.566 tasi egizak va 233 tasi uch egizak bo'lib, natijada 13.380 ta chaqaloq tug'ilgan, jami 18.400 ta chaqaloq tug'ilgan"<sup>1</sup> bo'lib, "Hindistonda surrogat onalik xizmati bilan 25.000 dan ortiq chaqaloqlar dunyoga kelganligi<sup>2</sup>, Yevropa surrogat onalik markazi ma'lumotlarida "Rossiyada har yili surrogat onalardan kamida 22 ming bola tug'iladi", "yillik o'sish kamida 20% ni tashkil qiladi".<sup>3</sup> Surrogat onalik bilan bog'liq munosabatlar dunyoning ba'zi davlatlarida huquqiy tartibga solingan bo'lsada, ammo O'zbekistonda kundalik hayotda uchrashiga qaramay rasmiylashtirilmaganligi sababli milliy qonunchiligimiz va soha amaliyotida ushbu institutning "de-yure" joriy qilinishi zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy jihatidan tartibga solish istiqbollari tadqiq etish bo'yicha muayyan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada ayniqsa, surrogat onalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish, bekor qilish tartibini takomillashtirish, surrogat onalik munosabatlarida uchrayotgan huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirish, surrogat onalik munosabatlari ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, inson huquqlar to'g'risidagi qonunchilikni davlatlar milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish, surrogat onalik shartnomalarining tashkiliy huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topishga qaratilgan tahlillar qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolarning shaxsiy huquq erkinliklarini himoya qilish, sog'lom oila munosabatlarini saqlab qolish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyot strategiyasi doirasida "Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish"<sup>4</sup>, jamiyatning asosiy bo'lagi hisoblangan oilaning mustahkam asoslarini yaratish kabi muhim maqsadlar belgilangan. Fan, xususan tibbiyot rivoji oilaviy munosabatlarda ham qo'shimcha

---

<sup>1</sup> Perkins K.M., Boulet S.L., Jamieson D.J., Kissin D.M. "Trends and Outcomes of Gestational Surrogacy in the United States." *Fertility and Sterility* 106: 435–42.e2.

<sup>2</sup> Shetty P. "India's Unregulated Surrogacy Industry." *Lancet* 380: 1633–34.

<sup>3</sup> <https://russian.eurasianet.org/>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 2022-yil 28-yanvar PF-60 son. // Lex.uz.

majburiyatlarni, amaldagi milliy qonunchiligimiz bilan tartibga solinmagan yangi turdagi surrogat onalik bilan bog‘liq munosabatlar yo‘nalishi ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martdagi Fuqarolik kodeksi, 1996-yil 29-avgustdagi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 11-martdagi “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 11-maydagi “Inson a‘zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasida surrogat onalik bilan bog‘liq munosabatlar umumiy asoslarda u yoki bu darajada X.R.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, Sh.N.Ro‘zinazarov, R.J.Ro‘ziyev, O.Okuyulov, M.X.Rahmonqulov, D.Sh.Asyanov, A.Muxammadiyev, I.Anortoyev, S.Boyoqulov, K.Q.Rashidov, K.O.Sindorov, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev, N.F.Imomov, N.I.Askarov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, yirik sivilist-olimlar, akademik X.R.Rahmonqulov, professorlar I.B.Zokirov, R.J.Ro‘ziyev, O.Oqyulov, Sh.Ro‘zinazarovlar o‘z asarlarida mazkur turdagi shartnomalar mavjudligini qayd etish bilan cheklansalar, professor M.Sh.Choriyev shartnomaning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tadqiqotchi N.I.Askarov esa surrogat onalik shartnomasini nomlanmagan shartnomalar tasnifi kesimida dissertatsiya doirasida ilmiy-nazariy izlanishlarni amalga oshirganlar.

MDH mamlakatlari huquqshunos olimlari E.A.Ivayeva, E.S.Mitryakova, A.A.Pestrikova, S.P.Juravleva, V.V.Samoylova, G.B.Romanovskiy, E.V.Grigorovich, G.I.Litvinovalar tomonidan surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solish masalalari umumiy asoslarda tadqiq etilgan.

Xorijiy davlat huquqshunos olimlari R.A.Lumbasyo, A.Lyosdottir, K.M.Perkins, S.L.Boulet, D.M.Kissin, P.Shetty, S.Islam, D.J.Jeymson, H.L.Berk, J.M.Pheme, E.Powell, A.R.Shamsuddin, T.Le.Xuan, K.S.Weave<sup>1</sup> va boshqalarning ilmiy izlanishlarida surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solishning ayrim jihatlari o‘rganilib, ilmiy tahlil qilingan.

Biroq, izlanishlar tahlilidan ayon bo‘ladiki, mamlakatimizda surrogat onalikni huquqiy va individual tartibga solish bilan bog‘liq muammolar yechimlari to‘liq

---

<sup>1</sup> Bu va boshqa olimlar tadqiqot ishlari(asarlari) to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

qamrab olinmaydi. Shu sababli mamlakatimizda surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solish, genetik ota-ona va surrogat ona munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, surrogat onalik tushunchasining mohiyati, shartnomaning asosiy va qo'shimcha shartlari bilan bog'liq yangi ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish lozim.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Ilmiy-tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solishning takomillashtirish hamda fuqarolik huquqiy tartibga solish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

surrogat onalik munosabatining paydo bo'lish tarixi va umumiy tavsifini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish;

surrogat onalik munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

surrogat onalik munosabatlarini huquqiy tartibga solish bo'yicha xorijiy tajriba institutining shakllanishi hamda rivojlanishini qiyosiy tahlil asosida o'rganish;

surrogat onalik shartnomasi tushunchasi, huquqiy tabiati va predmetini fuqarolik huquqiy shartnomalar tizimida tasniflash;

surrogat onalik shartnomasining taraflari va ularning huquq hamda majburiyatlarini takomillashtirish;

surrogat onalik shartnomasining asosiy va qo'shimcha shartlarining o'ziga xos jihatlari ko'rsatib berish;

surrogat onalik shartnomasi bo'yicha genetik ota-onaning javobgarligini takomillashtirish masalalarini yoritib berish;

surrogat onalik shartnomasi bo'yicha surrogat onaning javobgarligi masalalarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish;

surrogat onalik shartnomasi bo'yicha javobgarlikni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** surrogat onalikning umumiy tavsifi va surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solish va unga oid yuridik fandagi konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda umumlashtirish, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, qonunchilik hujjatlarini sharhlash, statistik ma'lumotlar tahlili, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganish, tarixiylik, kuzatuv, tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"surrogat ona" – genetik ota-onaning urug'idan hosil bo'lgan farzandni tanasida katta qilib, dunyoga keltirish majburiyatini bajaradigan ayol, "genetik ota-ona" – belgilangan haqni to'lash majburiyatini olgan yoki tekin surrogat ona

tomonidan surrogat onalik dasturi yakunida dunyoga keltirilgan farzandni qabul qilib oluvchi qonuniy er-xotin” ekanligi asoslantirilgan;

fuqarolarning xavfsiz va samarali reproduktiv texnologiyalardan foydalangan holda sun’iy urug’lantirish va surrogat onalikni legallashtirish maqsadida o’z farzandlarining tug’ilishi xususida mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishi lozimligi asoslantirilgan;

surrogat onalik va sun’iy urug’lantirishda murakkab tibbiy amaliyotini qo’llamaslik uchun yangi tibbiy, yordamchi reproduktiv texnologiyalar (surrogat onalik, sun’iy urug’lantirish va h.k.dan)dan, kam invazivli (kam jarohatlaydigan) aralashuvlardan foydalangan holda bepushtlikni davolash imkoniyati huquqiy asoslantirilgan;

insonning ko‘payishiga taalluqli bo‘lgan a‘zolar va to‘qimalarning (tuxum hujayrasi, sperma, tuxumdonlar, moyaklarning yoki embrionlarning) transplantatsiyasi odam savdosiga sabab bo‘lmasligi uchun ularni surrogat onalik, sun’iy urug’lantirish munosabatlariga nisbatan tatbiq etilmasligini qonunan taqiqlash zarurligi asoslantirilgan;

tirik donor va retsiyent (surrogat ona, genetik ota-ona)lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar shaxsga oid ma’lumotlar tariqasida saqlanishini ta’minlash maqsadida oshkor etilishiga yo‘l qo‘yilmaydigan shifokor sirini tashkil etishi lozimligi asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Qonun ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyotida, shuningdek, fuqarolik va oila munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash va milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik, oila huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda xizmat qilgan;

Surrogat onalik shartnomasini amaldagi qonunchiligimizga kiritish uchun O‘zbekiston Respublikasining “Surrogat onalik to‘g‘risida”gi qonuni loyihasi tayyorlangan va (1-ilova) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligiga taqdim etilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi tarkibiga surrogat onalik shartnomalariga bag‘ishlangan moddalarni kiritish taklif etilib, ushbu moddalarning loyihasi ishlab chiqilgan va (2-ilova) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan;

Fuqarolik kodeksi tarkibiga surrogat onalik shartnomalariga bag‘ishlangan yangi bob loyihasi ishlab chiqilgan va (3-ilova) Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan;

Ishchi guruh tarkibida 2022-yil 11-maydagi “Inson a‘zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-768-sonli qonuni loyihasiga takliflar ishlab chiqilgan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash masalalari qo‘mitasining 2023-yil 31-maydagi № 04/4-12-2131-son dalolatnomasi);

Surrogat onalik shartnomasining tarkibiy qismi bo‘lgan “surrogat ona”, “genetik ota-ona”, “surrogat onalik dasturi”, “surrogat onalik shartnomasi doirasida tibbiyot tashkilotining ishtiroki” kabi tushunchalarni shartnoma munosabatlarida



aniq belgilash maqsadida surrogat onalik shartnomasining namunaviy shakli (4-*ilova*) ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishining ishonchliligi unda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan metodologik yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, surrogat onalik shartnomasi bilan bog'liq munosabatlardagi nizolarni tizimli o'rganish hamda ilmiy tadqiqotning natijalari xalqaro va milliy qonunchilik normalari, bundan tashqari xorijiy mamlakatlarning ilg'or ilmiy tajribalari, huquqni qo'llash amaliyoti jarayoni, sivilistika nazariyasining umume'tirof etilgan qoidalaridan kelib chiqqan holda amaliyotga joriy qilinganligi va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan taalluqli ravishda amaldagi qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, fuqarolik huquqi, jumladan shartnoma instituti va huquqning shu sohaga aloqador ilmiy-nazariy bazasini boyitish, oliy o'quv yurtlari huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha o'quv, ilmiy tadqiqot, malaka oshirish, shuningdek sud amaliyoti jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda, fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish hamda o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surrogat onalik munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

surrogat onalik shartnomasiga oid konseptual g'oya va takliflar "Shartnoma huquqi" darsligi (VII-Bob 3-§. Surrogat onalik shartnomasi)da o'z ifodasini topgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'i, №302-1071-ro'yxatga olish raqami ruxsatnomasi). Ushbu taklif surrogat onalik bilan bog'liq fuqarolik huquqiy munosabatlarining ilmiy nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilgan;

fuqarolarning xavfsiz va samarali reproduktiv texnologiyalardan foydalangan holda o'z farzandlarining tug'ilishi xususida mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishi lozimligiga oid taklifi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagi "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi O'RQ-528-sonli qonunining 10-moddasi 1-bandida o'z ifodasini topgan. (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasining 2023-yil 31-maydagi №04/4-12-2131-son dalolatnomasi) Ushbu taklifning joriy qilinishi fuqarolar o'z farzandlarining tug'ilishi (surrogat onalik, sun'iy urug'lantirish va h.k.) xususida mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishi tartibini takomillashtirishga xizmat qilgan;

surrogat onalik va sun'iy urug'lantirishda murakkab tibbiy amaliyotini qo'llamaslik uchun yangi tibbiy, yordamchi reproduktiv texnologiyalar (surrogat onalik, sun'iy urug'lantirish va h.k.dan)dan, kam invazivli (kam jarohatlaydigan) aralashuvlardan foydalangan holda bepushtlikni davolash lozimligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagi "Fuqarolarning reproduktiv

salomatligini saqlash to'g'risida"gi O'RQ-528-sonli qonunining 12-moddasi 1-qismi 3-bandida o'z ifodasini topgan. (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasining 2023-yil 31-maydagi №04/4-12-2131-son dalolatnomasi). Taklifning joriy qilinishi yangi tibbiy, shu jumladan yordamchi reproduktiv texnologiyalardan (xususan, surrogat onalik, sun'iy urug'lantirish va h.k.dan) foydalanishni aniq huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilgan;

insonning ko'payishiga taalluqli bo'lgan a'zolar va to'qimalarning (tuxum hujayrasi, sperma, tuxumdonlar, moyaklarning yoki embrionlarning) transplantatsiyasi odam savdosiga sabab bo'lmasligi uchun ularni surrogat onalik, sun'iy urug'lantirish munosabatlariga nisbatan tatbiq etilmasligiga oid taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-maydagi "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi O'RQ-768-sonli qonunining 1-moddasi 2-qismi 1-bandida o'z ifodasini topgan. (Oliy Majlis Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2023-yil 10-maydagi №17-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasidan (surrogat onalik, sun'iy urug'lantirish va h.k.) surrogat onalik dasturiga nisbatan tatbiq etilmasligining tartibini takomillashtirishda xizmat qilgan;

tirik donor va retsiyent (surrogat ona, genetik ota-ona)lar to'g'risidagi ma'lumotlar shaxsga oid ma'lumotlar tariqasida saqlanishini ta'minlash maqsadida oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydigan shifokor sirini tashkil etishiga oid taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-maydagi "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi O'RQ-768-sonli qonunining 16-moddasida o'z ifodasini topgan. (Oliy Majlis Senati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2023-yil 10-maydagi №17-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi bilan surrogat onalik dasturi taraf (surrogat ona, genetik ota-ona)lari to'g'risidagi ma'lumotlarning tibbiyot tashkilot va tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma beruvchi vakolatli organ (FHDYo) tomonidan oshkor etilishiga yo'l qo'yilmasligi tartibini belgilashda xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari, 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maqola va ma'ruza tezislari shaklida bayon etilib, muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 16 ta, jumladan, 2022-yilda nashr etilgan "Shartnoma huquqi" darsligida, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda, xususan milliy jurnallarda 4 ta, xalqaro jurnallarda 4 ta, xalqaro ilmiy anjumanlarda 2 ta, respublika ilmiy anjumanlarida 5 ta maqolalar nashr etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi davlat muassasasida "Taqdimot" mualliflik ko'rsatuvi tayyorlangan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'qqiz paragrafni o'zida qamrab olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 139 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya kirish (Dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi berilgan, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilganligi, aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Surrogat onalik munosabatlarini fuqarolik huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi”** deb nomlanib, unda tushunchalar, uning nazariy tahlili, tavsifi va tasniflanishi, surrogat onalik bilan bog‘liq munosabatlar tushunchasi va ularning huquqiy tahlili, shuningdek, surrogat onalik ilmiy amaliy tahlili asosida o‘rganilgan va nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Surrogat onalik munosabatining paydo bo‘lish tarixi va umumiy tavsifi”* deb nomlangan bo‘lib, unda muallif tomonidan surrogat onalik masalalariga oid Y.Polikarpova, L.Ayvar, Y.Mitryakova, Y.Ivayeva, S.Juravleva, A.Pestrikova, Y.Stebleva, A.Purge, G.Serour, A.B.Carroll, N.Antsux, A.Abu-Rabia, F.Husain kabi olimlarning nazariy qarashlarida bayon etilgan turli yondashuvlarni tahlil qilish asosida surrogat onalik vujudga kelishi, turli davrlarda mavjud shakllari, surrogat onalik munosabatlariga nisbatan huquqni qo‘llashning amaliyotga to‘g‘ri tatbiq etilishi bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan.

Paragrafda surrogat ona, genetik ota-ona tushunchalariga nisbatan xorij ekspertlarining bildirgan fikrlarini tahlil qilib, ilm-fanning muntazam rivojlanishi bilan surrogat onalik xizmatidan YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiya) vositasida qo‘llash amaliyotini amaldagi qonunchilikni takomillashtirish uchun zarurati masalasi o‘rganilgan.

Bundan tashqari surrogat onalikning qadimiy shakllari (genezisi) Xammurapi qonunlarida mavjud konsepsiyaning qonuniy ravishda vujudga kelishi, surrogat onalik shaklining diniy manba Injilda qayd qilinishi, Eski Ahd (Ibtido) kitobining 16-bobida Sora va Ibrohim, 30-bobda Rohila (xizmatkori Valla) va Yoqub o‘rtasidagi, shuningdek, Plutarxning “Qiyosiy tarjimai hollar” Deiotar va uning rafiqasi Stratonikaning o‘zaro kelishuvi, R.Norberning “Huquqiy antropologiya” asaridagi donor donatsiyasi, XVIII-asrda Italiyada surrogat onalik ilk protsedurasining ruhoniy S.Lazaro tomonidan YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiya) yordamida amalga oshirilishi, XX-asrda ingliz olimlari biolog R.Edwards va ginekolog P.Stepta tomonidan surrogat onalik tajribasining amalga oshirilishi, 1960-yillarda SSSRda B.V.Leonov, A.I.Nikitinning inson tuxum hujayralarini “probirkadagi chaqaloq” nomini olgan muvaffaqiyatli urug‘lantirishi, dunyoda birinchi surrogat onalik dasturi 1980-yilda AQShning Illinoys shtatida 37 yoshli E.Keyn, 1987-yilda Janubiy Afrikada bepushtlik tashxisidan keyin K.Ferreyraning 48 yoshli onasi P.Entoni qizi uchun surrogat ona bo‘lganligi, 1995-yilda birinchi marta Sankt-Peterburgda (RF) surrogat onalik dasturi amalga oshirilganligi tahlil qilingan.

Birinchi bobning “*Surrogat onalik munosabatini tartibga solishning huquqiy asoslari*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida tadqiqotchi tomonidan surrogat onalik munosabatini tartibga solishning huquqiy asoslari asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida surrogat onalik munosabatlarini o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ayrim davlatlar qonunchiligida, mazkur munosabatlarni umumiy asosda tartibga solishning huquqiy norma (mexanizmlari)lari tasnifi ilmiy-amaliy tahlillar asosida o‘rganilgan.

Xususan, surrogat onalik masalalari Yevropa Parlamenti tomonidan 1969-yil 16-martda qabul qilingan rezolyutsiya, 1989-yildagi Yevropa Kengashining Biologik etika va tug‘ilishning sun’iy usullari bo‘yicha maxsus ekspert qo‘mitasining rezolyutsiyasi, 1996-yil 19-noyabrdagi Yevropa Kengashi Vazirlar qo‘mitasi tomonidan umumiyevropa miqyosida biotibbiyot sohasida inson huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya, xalqaro huquqda sun’iy urug‘lantirish usullari, shuningdek, Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining 3 (uch) ta tavsiya va Inson huquqlari bo‘yicha komissiya qaroridan kelib chiqadigan bir qancha direktivalar bilan tartibga solinishi tahlil qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 5-moddasiga ko‘ra fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan munosabatlar qonunchilik yoki taraflarning kelishuvi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonunchiligining o‘xshash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo‘llanilishi (qonun o‘xshashligi) hamda FKning 354-moddasining 3-qismiga ko‘ra qonuniy asosda shartnoma tuzish erkinligi, taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkinligidan kelib chiqib surrogat onalik shartnomasi nomlanmagan (notipik) shartnomalar nomi ostida yuritilishi va mamlakatimizda mazkur munosabatlarni tartibga solinishi uchun norma ijodkorligida alohida qonun qabul qilinishi masalasi ta’kidlangan.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi “*Surrogat onalik munosabatlarini huquqiy tartibga solish bo‘yicha xorijiy tajriba*” deb nomlangan bo‘lib, unda muallif surrogat onalik munosabatlarini huquqiy tartibga solishning umumiy asoslari va mazkur munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha xorijiy tajribani tahlil qilgan.

Tadqiqot doirasida AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Gruziya, Polsha, Ukraina, Finlandiya, Isroil, Meksika, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va boshqa davlatlarning surrogat onalik munosabatlarini huquqiy tartibga solish masalasida xorijiy tajribasi tahlil qilingan. Muallifning surrogat onalik munosabatlariga oid tahliliy izlanishlar natijasida ikkita asosiy muammo qayd qilingan:

1.Ota-ona huquqlari subyektini aniqlash - fiziologik va genetik ota-onalikni tanlash.

2.Surrogat onalik shartnomalarining haqiqiyliigi to‘g‘risidagi muammo ya’ni, tijorat asosidagi surrogat onalik qonuniy hisoblanadimi? (tovon to‘lash sharti).

Tadqiqot ishida xorijlik A.Flyagin, K.Spivak, L.Korbut, A. Rubanov, I.Afanasyeva, N.Askarov, Y.Pavlova, S.Pospelova, O.Leontyev, S.Islam, R.B.Nordini, I.Susan, J.Vasanti, S.Markens, A.Dutta, J.Scherpe, F.G.Claire, A.Arvidsson, S.Johnsdotter, B.Yessen kabi olimlar va amaliyotchi mutaxassislari bilan ilmiy munozaraga kirishilgan. Tadqiqotchi surrogat onalik masalalariga oid

L.Korbut, A.Rubanov kabi olimlarning uch turdagi muammolari tahliliga oid fikrlariga qo‘shiladi:

1.Subyektlar tomonidan genetik ota-onalarning ota-ona huquqlarini tan olish – surrogat onalik shartnomalariga ijobiy munosabatni bildiradi.

2.Subyekt tomonidan genetik ota-onalarga emas, balki surrogat onaga ota-ona huquqlarini tan olish, surrogat onalik shartnomalariga salbiy munosabat.

3.Surrogat onaning xohishiga ko‘ra ota-ona huquqlari subyektlari masalasini hal qilish: agar u bolani o‘zi uchun saqlab qolish istagini bildirsa, u holda ota-ona huquqlari subyekt sifatida tan olinadi.

Xorijiy mamlakatlardan Germaniya, AQSH, Isroil, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston davlatlarining surrogat onalik bilan bog‘liq tegishli oila, nikoh, yordamchi reproduktiv texnologiya (YoRT) va boshqa normalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Surrogat onalik munosabatlarini huquqiy tartibga solishni huquqiy asosi sifatida shartnoma”** deb nomlangan ikkinchi bobida surrogat onalik munosabatlarini shartnoma asosida huquqiy tartibga solish, surrogat onalik shartnomasining mavjud loyihalari ilmiy-amaliy tahlil qilinib, mazkur shartnomaning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Muallif tomonidan “surrogat ona” – genetik ota-onaning urug‘idan hosil bo‘lgan farzandni tanasida katta qilib, dunyoga keltirish majburiyatini bajaradigan ayol, “genetik ota-ona” – belgilangan haqni to‘lash majburiyatini olgan yoki tekin surrogat ona tomonidan surrogat onalik dasturi yakunida dunyoga keltirilgan farzandni qabul qilib oluvchi qonuniy er-xotin” shaklida, mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“Surrogat onalik shartnomasi tushunchasi, huquqiy tabiati va predmeti”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda surrogat onalik shartnomasi bo‘yicha huquqshunos olim va amaliyotchi mutaxassislarning fikrlari tahlil etilgan.

Tadqiqot ishida A.Pestrikova, S.Chashkova, S.Juravleva, T.Borisova, O.Gridneva, L.Sitdikova, O.Lebedov, G.Bogdanova, S.Albarov, A.Antonov, N.Makarenko, M.Braginskiy, V.Vitryanskiy, K.Kirichenko, A.Aleksandrov, Y.Mitryakova va boshqa olimlarning surrogat onalik shartnomasiga oid bildirgan fikrlari tahlil etilgan va ular bilan ilmiy munozaraga kirishilgan.

Tadqiqot doirasida surrogat onalik shartnomasi ilmiy-amaliy tahlillar asosida o‘rganilib, taraflarning maqsadi (motivi), genetik ota-ona va surrogat onaning shaxsi va mazkur shartnomaning o‘ziga xosligidan kelib chiqib surrogat onalik shartnomasining namunaviy loyihasiga ta’rif berilgan. Xususan, “surrogat onalik shartnomasi — bu amaldagi fuqarolik qonunchiligida mustahkamlanmagan (notipik) yangi bir taraf surrogat ona, ikkinchi taraf genetik ota-ona va uchinchi taraf sifatida tibbiyot muassasalari o‘rtasida genetik ota-ona urug‘idan sog‘lom farzandni surrogat onaning tanasi a’zosida yetishtirib, dunyoga keltirishga qaratilgan kelishuv” sifatida bayon etilgan.

Ushbu bobning *“Surrogat onalik shartnomasining taraflari va ularning huquq hamda majburiyatlari”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida tadqiqotchi surrogat onalik shartnomasi taraflari sifatida surrogat ona, genetik ota-ona huquqiy

munosabatlarining tahlili, surrogat onalik dasturi yakunida vujudga kelgan bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun shartnomada tibbiyot muassasasining va taraflarning huquq hamda majburiyatlari masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotchi surrogat onalik shartnomasining taraflari masalasini oid V.Vitryanskiy, S.Juravleva, K.Farakshina, A.N.Chapligin kabi olimlarning fikrlarini muhokama qilib, K.Farakshinaning shartnoma taraflari tahliliga oid fikrlariga qo'shiladi:

1) surrogat onalik to'g'risidagi shartnomasida surrogat ona va genetik ota-onadan tashqari, uchinchi shaxs - tibbiyot tashkiloti mavjud bo'lishi kerak.

2) bunda tibbiyot tashkiloti surrogat onalik shartnomasining mahsuli bo'lgan farzandning odam savdosi qurboniga aylanmasligiga zamin yaratadi.

3) shartnoma taraflarining dastur jarayonida tibbiy tadqiqotlar o'tkazishga bo'lgan ehtiyoji, EKV (Ekstrakorporal urug'lantirishsiz) va YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiya)ni qo'llash ixtisoslashtirilgan tibbiy tashkilotda amalga oshirilishi lozim.

Ushbu paragrafda surrogat onalik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari xalqaro va milliy normalar bilan kafolatlanganligi, mamlakatimiz va jahon mamlakatlari olimlari, jumladan, G.Romanovskiy, D.Medvedova, Y.Antonenko, N.Tarusina, N.Moxov, T.Borisova, A.Flyaginlar tomonidan bildirilgan fikrlar tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "*Surrogat onalik shartnomasining asosiy va qo'shimcha shartlari*" deb nomlangan bo'lib, surrogat onalik shartnomasining asosiy shartlari sifatida shartnoma predmeti bo'yicha, genetik ota-onaning o'zi yoki donor genetik materialidan foydalanish sharti va surrogat ona va tibbiy tashkilotga qo'shimcha talablar mavjudligi to'g'risidagi shartning qonun hujjatlarida belgilangan talablardan tashqari bo'lmasligi va boshqa shartlar qayd qilingan.

Surrogat onalik shartnomasining asosiy va qo'shimcha shartlari, taraflarning huquqlari, surrogat onalik dasturining hisob-kitob qilish tartibi, taraflarning majburiyatlari, shartnomaviy-munosabatlarni tugatish tartibi va shartlari, dastur doirasida qo'shimcha tibbiyot tadqiqotlari o'tkazish shartlari va boshqalar xorijiy davlatlar amaliyotchi va olimlarning fikrlariga asoslangan holda "Surrogat onalik shartnomasi"ning namunaviy loyihasi tayyorlanib, taklif etilgan.

Muallif tomonidan tadqiqotda surrogat ona, genetik ota-ona surrogat onalik shartnomasi imzolanganiga qadar hamda surrogat onalik dasturi jarayonidagi talablar yoki surrogat onalik dasturi yakunlanganidan keyin taraflarning o'zaro huquq va majburiyatlari masalasi, shuningdek, surrogat onalik shartnomasini haq evaziga xizmat ko'rsatish, pudrat shartnomasi va boshqa shartnomalarning elementlari mavjudligi inobatga olinib, nomlanmagan (notipik) shartnoma sifatida tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Surrogat onalik shartnomasi bo'yicha taraflarning javobgarligi va uni takomillashtirish masalalari**" deb nomlanib, unda surrogat onalik shartnomasi taraflari genetik ota-ona, surrogat onaning javobgarligi va shartnomasi bo'yicha taraflarning javobgarligini takomillashtirish masalalarini o'rganish, bu borada ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, shartnoma doirasida taraflarning o'zaro huquq va majburiyatlarni talab darajasida

bajarishini tadqiq etish, javobgarlikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Mazkur bobning *“Surrogat onalik shartnomasi bo'yicha genetik ota-onaning javobgarligi”* deb nomlangan birinchi paragrafida tadqiqotchi tomonidan xalqaro va milliy normalar bilan tahlil qilinib, jumladan, S.Carsley, I.B.Zokirov, X.R.Rahmonqulov, Sh.N.Ro'zinazarov, R.J.Ro'ziyev, O.Okuyulov, A.Muxammadiyev, I.Anortoyev, S.Boboqulov, K.Q.Rashidov, K.O.Sindorov, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev, N.F.Imomov, N.I.Askarov, M.Abdusalomov, X.Azizov, B.Axmadjonov, A.Aslamurzayeva, A.Sergeyeva, T.Borisova, G.Romanovskiy, I.Mixaylova, M.Crawshaw, P.Fronek, E.Blyth, A.Yelvin ilmiy qarashlariga tayanib, surrogat onalik shartnomasi doirasida genetik ota-onaning javobgarligini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Muallif tomonidan surrogat onalik shartnomasining fuqarolik va oila huquq sohasining shartlarini o'z ichiga olgan tarmoqlararo va murakkab shartnoma ekanligini inobatga olib, mazkur shartnomani huquqiy tartibga solinishi, fuqarolik huquqi normalari, qonun va huquq analogiyasidan foydalangan holda oilaviy huquq normalaridan kelib chiqilishi maqsadga muvofiqligi masalasi tahlil qilingan. Ushbu paragrafda genetik ota-onaning javobgarligini takomillashtirish masalasi tahlil qilinib, tadqiqotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining *“Surrogat onalik to'g'risida”*gi qonunini qabul qilish zaruriyati asoslab berilgan.

Uchinchi bobning *“Surrogat onalik shartnomasi bo'yicha surrogat onaning javobgarligi”* deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida tadqiqotchi tomonidan surrogat onaning javobgarligi masalasida oila va fuqarolik huquqi qamrovida javobgarlikni takomillashtirishni nazarda tutuvchi takliflar ishlab chiqilgan.

Jumladan, taraflar o'rtasida yozma tarzda imzolangan surrogat onalik shartnoma doirasidagi javobgarligi masalasi, surrogat onalikka doir cheklovlar, dastur natijasida vujudga kelgan farzand(lar)ni genetik ota-onalardan boshqa shaxslarga o'tkazish taqiqlanishi, surrogat onalik natijasida vujudga kelgan farzand(lar)ni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish qonunchilik bilan tartibga solinishi masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotchi surrogat onaning surrogat ona va genetik ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydigan sirni tashkil etishi masalasida taklif kiritgan.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi *“Surrogat onalik shartnomasi bo'yicha javobgarlikni takomillashtirish”* deb nomlangan bo'lib, unda mazkur shartnoma taraflarining javobgarligini takomillashtirish masalasi, shuningdek, xorij tajribasi asosida shartnoma taraflarining javobgarligini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Xususan, surrogat onalik shartnomasi bo'yicha javobgarlikni takomillashtirish masalasi tadqiqotchi tomonidan xalqaro va milliy normalar bilan tahlil qilinib, mamlakatimiz olimlari H.Rahmonqulov, N.Imomov, N. Egamberdiyeva, M.Abdusalomov, X.Azizov, B.Axmadjonov, dunyo davlatlari olimlari J.Flemming, T.Muxina, A.Suxanov, O.S.Jovic, F.A.Bello, O.Olayemi, S.Yeye, H.Shilini, L.Clifford, N.F.Bromfiyeld, K.S.Rotabi va boshqa olimlar fikrlari tahlil qilingan.

